Amerika olimlari M.Porter “Raqobat uslubligi nazariyasi” [3], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorentzenlar “Mintaqaviy klasterlar kontseptsiyasi” [4], A.Marshall “Sanoat hududlar nazariyasi” [5], P.Bekatin “Italyan sanoat o’grug’lari nazariyalari”ni ilgari surishgan. [6] Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarida klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara hisoblanib, ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko’rsatuvchi sub’ektlar faoliyati bilan uyg’unlashgan tizimi ekanligi ta’kidlanadi. Klasterlar bilan bog’liq vaziyatlar shu bilan birgalikda hududlarni rivojlantirishda Rossiya olimlari Yu.S.Artomovna, B.B.Hurustalev [7] tomonidan o’rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Izlanish davomida iqtisodiy, statistik, qiyosiy tahlil, xronologik kuzatish va matematik usullardan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’kidlash lozimki, to’qimachilik sanoati dunyo miqyosida eng serdaromad va muhim yo’nalishlardan biridir. So’nggi yillardagi jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarining o’zgarishi Yevropa va AQShdan rivojlanayotgan Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo mintaqalarga yetib keldi. Bu esa mamlakatimizda sanoatning muhim tarmoqlari hisoblangan to’qimachilik klasterlarining paxtani dastlabki ishlash, trikotaj va tikuvchilik kabi tuzilmalarni modernizatsiya qilish, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni taqazo etadi.

Shu munosabat bilan, O’zbekiston pahtachilik sohasini rivojlantirishda Hukumat tomonidan keng ko’lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xossatan, mamlakatimiz rahbari tomonidan ko’plab qaror va farmonlarning qabul qilinishining pirovard maqsadi ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni paxta-to’qimachilik klasterlar tomonidan chuqur qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot shakliga keltirish va ularni eksportga yo’naltirish hisoblanadi. Shunday ekan, Respublikaniing har bir hududida paxta-to’qimachilik klasterlar faoliyatini takomillashtirish strategik maqsadlardan sanaladi. Bunda ayniqsa xorijda to’qimachilik sanoatida yetakchi bo’lgan mamlakatlar tajribalarini qo’llash joiz hisoblanadi.

So’nggi yillarda sohada amalga oshirilgan islohotlardan yana bir muhim jihati bu pahta xom ashyo resurslarini butkul qisqartirilib, hattoki yarim tayyor mahsulotlar hisoblangan ip-kalava eksportdagi ulushi sezilarli darajada qisqartirilib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga davlat boshqaruvida tadbirkorlarga katta yo’l va imtiyozlar berildi. Bu amaliy harakatlarning barchasi Respublika hududlarda yuqori talablariga javob beradigan ishlab chiqarish quvvatlaridan to’liq foydalangan holda qo’shimcha qiymatga ega bo’lgan mahsulotlarni ishlab chiqish asnosida yaxlit tizimni shakllanishi bilan bog’liqdir.

Bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi sanoat tarmog’iga aylangan to’qimachilik sanoati rivojlanib borayotgan yetakchi sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Har yili mamlakatimizda ko’plab tadbirkorlik sub’ektlarning aynan ushbu sohada faoliyatlarini boshlashlari sohaning taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O’zbekistonda faoliyat olib borayotgan 7000 mingdan ortiq kichik va o’rta biznes vakillari to’qimachilik sohasida faoliyat yuritayotgan bo’lib, ushbu sohada band bo’lgan ishchi va xodimlar soni bugungi kunga kelib, 500 mingdan oshadi. Bu borada yurtimizda eksport hajmi hamda ularni geografiasini kengaytirishda Mamlakatimiz rahbarining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” PF-60 sonli farmonning III va VII ustuvor yo’nalishlarida belgilab berilgan to’qimachilik sanoati rivojlantirishni takomillashtirish, ishlab chiqarish hajmini yagona zanjir orqali 2 barobarga ko’paytirish, xom ashyo eksportini qisqartirish va tayyor mahsulot ulushida mahalliy va xorijiy brendlarni jalb qilish natijasida 2026 yilda eksport ko’rsatkichini 5,0 mlrd. dollarga yetkazish belgilangan.[8]

1-jadval. Xorijiy davlatlarda sanoat korxonalarini klasterlashtirish bilan bog’liq jarayonlar.


| № | Mamlakatlar | Klasterlar faoliyat ko’rsatayotgan sanoat tarmoqlari |
|----|-------------|--|
| 1. | AQSH | Aerokosmik ishlab chiqarish Aviasozlik Energetika Avtomobilsozlik Elektrmuhandislik. Biotexnologiya |
| 2. | Finlyandiya | Elektromuhandislik. Agrosanoat. Qurilish. Daraxtni qayta ishlash. |



| | | |
|----|-----------------|---|
| 3. | Daniya | Farmasevtika. Sog'liqni saqlash. Energetika. |
| 4. | Buyuk Britaniya | Biotexnologiya. Kimyo vositalari. |
| 5. | Germaniya | Avtomobilsozlik. Biotexnologiya. Neftgaz kompleksi. Energetika. |
| 6. | Xitoy | Mikroelektronika. Aerokosmik ishlab chiqarish. Biotexnologiya. Avtomobilsozlik. Energetika. |
| 7. | Kanada | Biotexnologiya. Telekommunikatsiya. Sog'liqni saqlash. |
| 8. | Yaponiya | Robotsozlik. Mikroelektronika. Energetika. Avtomobilsozlik. |

Jadvalda turli sohalarni klasterlash tizimini kuzatishimiz mumkin. AQSHda 6 ta yo'nalishda, Finlyandiyada 4 ta, Daniyada 3 ta, Buyuk Britaniyada 2 ta, Germaniyada 4 ta, Xitoyda 5 ta, Kanadada 3 ta, Yaponiyada 4 ta soha yo'nalishlarda klasterlarga asoslangan tizim faoliyat yuritib keladi. Dunyo tajribasiga qaralsa, texnika, sog'liqni saqlash, avtomobil sohasida ilg'or hisoblangan mamlakatlar klaster tizimida faoliyat yuritib kelishiga olib kelmoqda. Endi esa to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish va eksport salohiyati borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasiga to'xtalsak.

Turkiya to'qimachilik sanoati xususiy korxonalar, universitetlar hamda Hukumat organlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan. Turkiya sanoat va texnologiya vazirligi tomonidan "Yashil va Raqamli to'qimachilik Ekosistemi" tashkil etish boshlab yuborilgan. Unga ko'ra, to'qimachilik korxonalar, ilmiy markazlar va eksportchilar birlashgan holda aylana iqtisodiyotda ilmiy tadqiqot tajriba konstrktorlik ilmiy ishlanmalar samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar va treninglar keng yo'lga qo'yilgan. Turkiyada davlat tomonidan klasterlar faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash dasturi mavjud. Unga ko'ra, davlat marketing, investitsiya, mashina uskunaridi, hodimlarni tayyorlash, infratuzilma va logistika xarajatlariga qadar 70% gacha subsidiya berib kelmoqda.



1-rasm. Turkiya to'qimachilik sanoatini eksport faoliyatini rivojlantirish dasturi.



Turkiyada to'qimachilik klasterlari asosan dengiz bo'yidagi port shaharlari-Istanbul, Izmir, Denizli, Gaziantep va boshqa joylarda joylashgan. Transport infratuzilmasi va Yevropa Ittifoqi bozorlarga yaqinligi eksport qilish imkoniyatlarini keskin oshiradi. 2020 yil ma'lumotlariga tayangan holda, Turkiya 11 milliard dollar to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. Turkiya to'qimachilik klasterini tashkil etishdan maqsadi-Yevropa Ittifoqitalablari asosida barqaror texnologiyalar joriy qilish va raqobatbardoshpositsiyasini mustahkamlashdan iborat. Turkiya to'qimachilik sanoati boshqaruv faoliyatini rivojlanish dasturi uch tayanchga asoslangan.

Xitoy sanoat klasterlari hukumat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, milliy to'qimachilik va tayyor mahsulot (kiyim-kechak kengashi) mamlakat bo'ylab rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Masalan, Jiangsu viloyatidagi Shengze shahri ipak va sun'iy ipak mahsulotlari bo'yicha dunyoda yetakchi markaziga aylandi. 1990 yillarda Hukumat to'qimachilik sanoatidagi samarasiz davlat korxonalarini qayta qurish va eskirgan uskunalarni yangilash siyosatini olib borish bilan birgalikda, korxonalarni innovatsiya faoliyatiga jalb qilish, tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish orqali brendlarni rivojlantirish bo'yicha islohotlar o'tkazdi. Yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilishida Xitoy to'qimachilik sohasidagi mavaffaqiyatining asosiy sabablari arzon ishchi kuchining mavjudligi, yirik xom ashyo bazalariga egaligi, qulay investitsion muhit, kichik va o'rta biznes korxonalariga imtiyoz va preferensiyalar berilishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, shu bilan birgalikda eksport hajmini amalga oshirishda JSTga a'zo bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Hindiston hukumati mato va kiyim-kechak sanoatini rivojlantirish uchun klaster uslubidagi sanoat zonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Hindistonda mamlakat klasterlari eksportining 60 foizidan ko'prog'ini ta'minlaydi va ba'zi yirik klasterlar Xindistonda to'qimachilik, va charm mahsulotlarining 90 foizini ishlab chiqaradi. Hindiston yuqori texnologiyali sanoat va xizmatlarni rivojlantirishda klasterlarning eksport imkoniyatlarini rag'batlantirish borasidagi yondashuvlari samarali. Hindiston dunyodagi yirik to'qimachilik uskunalari va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan sanaladi. Hindiston paxta yetishtirish bo'yicha jahonda 23 foiz ulushiga ega. Mamlakat to'qimachilik sanoati ustunliklardan biri chuqur qayta ishlashda qo'shimcha qiymat zanjirining mavjudligi va ish kuchi arzonligidir. Hindiston to'qimachilik sanoatining asosiy yondashuvi tikuv-trikotaj tarmog'iga qaratilgan. To'qimachilik klasterlar nazorati Hindiston yengil sanoat vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinadi.

AQSHda to'qimachilik sohasida mehnat qilayotganlar soni 501 mingdan ortiqni tashkil qiladi. To'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha jahonda uchinchi davlat hisoblanadi. 2022 yilda to'qimachilik va tayyor mahsulot eksporti 65,8 milliard dollarni tashkil qildi. [9] Amerikada boshqa tarmoqlar qatori to'qimachilik sanoati rivojlanishida klasterlarning o'z o'rnini mavjud. Shulardan biri, "New-York shahridagi kiyim klasteri" sanaladi. Klaster mamlakat kiyim-kechak mahsulotlarining 95 foizini ishlab chiqaradi. Klaster ta'lim va ishlab chiqarish holatlaridagi moda-dizayn jihatlariga qaratilgan. Klaster New-York shahri hududidagi 900 dan ortiq kompaniyalarni o'zida jamlagan.


Amerikaning Oregon shtatida sport mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to'qimachilik klasteri faoliyat yuritadi. Ushbu klaster tayyor mahsulotlar bo'lmish kiyim-kechak, charm-poyabzal hamda sport mahsulotlarining dizayn va texnologiyasiga qaratilgan bo'lib, 800 ta kompaniyalarni o'zida birlashtirgan. 1990 yillarda ushbu klasterda "Adidas", "Columbia Sportwear", "Merrill", "Icebreaker", "Keen&Showers", "Montbell" va "Mizuno" kabi kompaniyalar o'zlarining ofis va shtab kvartiralarini ochishga muvaffaq bo'lishgan. Klasterning asosiy tamoyili qo'shimcha qiymat zanjirini boshqarish, marketing va yangi texnologik ishlanmalar orqali mahsulot assortimenti va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini oshirish hisoblanadi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham to'qimachilik sohasida rivojlanish bo'yicha o'zlarining o'ziga xos uslublari mavjud. Bu borada, Vetnamda kichik va o'rta to'qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar jahon bozorlariga xaridorligi bilan tanilgan. Mamlakatda xom ashyo defitsitligi sababli ip-kalavanning 80 foizi, gazlamaning 90 foizi xorij mamlakatlaridan import qilinadi. Shunday bo'lsada, soha strategiyasi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarib eksport qilishga qaratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilda Vetnam 45 milliard dollarlik tayyor mahsulotlar eksportini amalga oshirgan. Sanoatining ustun tomoni paxta va ish kuchi narxining barqarorligi bilan birga, mamlakat 2019 yil 14 yanvardagi "Tinch okean hamkorlik shartnomasi"ga a'zo bo'lishi hisoblanadi. Shu sababli, Vetnam Kanada, Meksika, Yangi Zelandiya, Avstraliya kabi davlatlarga suv transporti orqali eksport hajmini oshirish imkonini berib, transport xarajatlarini qisqartirish imkoniyatini beradi.

Bangladesh dunyoning yirik kiyim-kechak eksportyorlaridan biri bo'lib, eksport daromadlarining katta qismi RMG (ready-made garment) sohasidan olinadi (so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2020/21 moliyaviy yilda RMG eksporti ~\$31.5 mlrd.dollar [10]). Ushbu yutuq xususiy sektorning yetakchi ro'liga, liberal iqtisodiy siyosatlarga hamda xalqaro investitsiyalar va texnologiya transferiga bog'liq. Misol uchun, xususiy eksportyorlar uyushmasi BGMEA boshchiligidagi klasterli ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar zich tarmoqlarda birlashgan. Tovar yetkazib berish zanjiri kesimida Dhaka va Narayanganj atrofidagi tekstil klasterlari rivojlangan; bu yerda tirik oqimdagi ishchi kuchi, texnik tayyorgarlik markazlari va masofaviy xizmatlar mavjud. AQSh savdo qo'mitasi bildirganidek, Bangladesh mato va kiyim ishlab chiqaruvchilari maxsus eksport

zonalar (EPZ) va imtiyozli bojxona mexanizmlari yordamida global bozorga yo'naltirilgan maishiy va kiyim-kechak mahsulotlarini yetkazib bermoqda.[11] So'nggi yillarda ekologiya va mehnat xavfsizligi masalalari ham markaziy ahamiyatga ega bo'ldi; xususan, IFC va hukumat loyihalari yordamida "toza klasterlar" modeli – fabrikalar va hukumat birlashmasida suv resurslarini tejash loyihalari – amalga oshirilmogda. Logistika nuqtai nazaridan Bangladeshda Chattogram porti mavjud bo'lsa-da, transport tarmog'i ba'zan tiqilishlarga uchraydi, shuning uchun infratuzilmani mustahkamlashga e'tibor qaratilmogda. Eksport strategiyasi jihatidan Bangladesh bozorlarni diversifikatsiya qilib, Irlandiya, AQSh va Yevropa bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib bermoqda.


Bangladesh tajribasi tayyor mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Bangladesh to'qimachilik sanoatini rivojlanishida "Bangladesh Textile Mills Corporation" (BTMC) davlat tashkilotiga asos solinganligi va ko'plab to'qimachilik korxonalarini a'zo bo'lganligi bilan bog'liq. Bangladesh paxta xom ashyo resurslariga ega emas. Mamlakat to'qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlarni eksport qilish hajmiga qaratilgan. Fabrikalarni iqtisodiy samaradorligini oshirishda "maxsus ishlab chiqarish-eksport zonalar" faoliyat ko'rsatadi. Umuman olganda, Bangladesh to'quv va tikuvchilik sanoatida amaldagi imtiyozlarni ichki va tashqi doiradagi omillarga ajratish mumkin.



2-rasm. Bangladesh to'qimachilik va tikuvchilik sanoati fabrikalarini ichki va tashqi faoliyatidagi imtiyozlar. [12].

Xulosa o'rnida Bangladesh tajribasi O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarini barqaror ishlashida elektr-energiya ta'minoti bilan uzluksiz ta'minlash, EI mamlakatlari bilan (GSP+) erkin savdo bitim talablardan kelib chiqqan holda tayyor mahsulotlarga sertifikatlarini olishni amaliy yordam ko'rsatish hamda eksport qilishda bojxona bojlarini olib tashlash; kadrlar malakasini isloh qilish, bunda ularning nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini shakllantirish soha oldidagi ustuvor vazifalarning yechimi sifatida taklif etiladi.

Italiyada klasterlar tumanlarini rivojlantirishning muvaffaqiyatli tajribasiga asoslanadi. Italiyada jami 200 ta sanoat zonalar mavjud bo'lib, ular 60 ming korxonalarini birlashtirilishi natijasida 600 ming ish o'rinlarini tashkil qilgan. Sanoat zonalarini kooperatsiyalashtirish natijasida 1 milliondan ortiq kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritib, bandlik darajasi 4–6 million kishini tashkil etadi. Italiya iqtisodiyotini rivojlanishida to'qimachilik sanoatining ulushi muhim hisoblanadi. Italiyada yuqori samaradorlikka ixtisoslashgan to'qimachilik uskunalarini eksport qilish hajmi bo'yicha jahonda 5 talikka kiruvchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Italiya to'qimachilik sanoatining muvaffaqiyatlaridan biri dunyoga mashhur brendlar sanaladi. Jahon 100 brendlarining 26 tasi Italiya hissasiga to'g'ri keladi. Italiyada Biella va Prato to'qimachilik sanoat okruglarida to'qimachilik klasterlari faoliyat ko'rsatadi. Bular to'qimachilik uskunalarini ishlab chiqarish va kiyim-kechak mahsulotlarga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.



3-rasm. Italiya to'qimachilik sanoatining tuzilish strukturasi.¹

Italiya to'qimachilik sanoat klasterlari uch bosqichdan tashkil topgan klaster shaklidagi boshqaruvga ega. (3-rasm) Bu yerda ko'plab kichik firmalar tomonidan yetakchi bo'lgan firmalarga xom ashyo va boshqa mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlab kelib, yetkazib berilganlik uchun ularga haq to'lanadi. Shundan so'ng, keyingi bosqichda xom ashyo mahsulotlar qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot shakliga keltiriladi. Tayyor mahsulotlar dizayni jahon talablaridan kelib chiqqan holda sifat nazoratidan o'tkazilib, yirik brend nomi ostida jahon bozorlariga eksport qilinadi. Italiya davlatining asosiy vazifalaridan biri sohaga yordam berishga qaratilgan boshqaruvni amalga oshirishdir. Bular eksport tizimidagi xorijiy davlatlar bilan bojxona bojlarini kamaytirish, qulay investitsion muhit yaratish, kichik biznes vakillariga konsalting xizmatlar ko'rsatish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Xorijiy tajribalarni inobatga olib, O'zbekistondagi to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Klasterni kengaytirish va differentiatsiya. Paxta-to'qimachilik klasterlarini faqat bir xil turdagi mahsulot yetishtirish o'rniga, uy-ro'zg'or buyumlari, to'qimachilik texnologiyalari, kiyim-kechak ishlab chiqarish kabi turli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan ko'p bo'g'inli tizimlarga aylantirish. Bunda yuqori texnologiyali va ekologik toza ishlab chiqarishga e'tibor qaratish zarur.

Davlat-xususiy sherikligini mustahkamlash. Klaster tashabbuslarini boshqarishda davlat va xususiy sektorning o'zaro mas'uliyatini aniq belgilab, sheriklik formatini joriy qilish. Turkiya misolida bo'lgani kabi, klasterlarda universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat agentliklarini birlashtiruvchi «ekotizim» yaratish (R&D markazi yoki trening markazi) samarali bo'lishi mumkin.

Infratuzilma va logistika takomillashuvi. Klaster hududlarida transport va energetika infratuzilmasini takomillashtirish, eksport yo'nalishida logistika zanjiri samaradorligini oshirish. Misol uchun, dengiz portlari va hududiy sanoat zonalarini o'rtasida integratsiyalashgan tizimni yo'lga qo'yish; bojxona soddalashtirilgan rejimini kengaytirish klaster eksportini rag'batlantiradi.

Innovatsiyalar va raqamli transformatsiya. Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etishni kengaytirish: aqlli to'qimachilik uskunalari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va ma'lumotlar bazalarini yaratish. Klaster dasturlariga innovatsion startaplar, raqamli treninglar, hamda texnologik transfer ofislarini jalb qilish, xududlarda ideal laboratoriyalari tashkil etish maslahat beriladi.

Eksport salohiyatini oshirish. Klaster mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish uchun brend va sifatni mustahkamlash, hamda yangi bozorlarni o'rganish zarur. Buning uchun milliy hamda xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda klaster korxonalarini jalb qilish, eksport konsortsiumlari tashkil etish va diplomatik savdo instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'shma korxonalar va transmilliy kompaniyalar bilan sherikchilikni kengaytirish eksport maqsadlarini amalga oshirishda yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi besh yil ichida paxta sanoatini chuqur transformatsiya qilish va to'qimachilik sanoatini klasterlashtirish bo'yicha olib borilgan izchil islohotlar O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada turtki bo'ldi. Xususan, ushbu jarayon natijasida hududiy ixtisoslashuv kuchayib, ishlab chiqarish zanjirlari samaradorligi oshdi, eksport hajmi esa yildan-yilga o'sib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish va eksport salohiyati yuqori bo'lgan viloyatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini boshqa hududlarda amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu, ayniqsa, respublika miqyosida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.



Jumladan, Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab to'qimachilik va tikuv-trikotaj fabrikalari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini yo'lga qo'yishda yetarli tajriba va texnik salohiyatga ega. Bu hududlarda tikuvchilik, chevarchilik va tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishida tajriba to'plangan bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi ham yuqori darajada ekanligi kuzatilmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda tayyor mahsulotlarga ixtisoslashgan korxonalar sonining ortib borayotgani ham bu hududlarda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Mazkur tajribalar asosida, respublikaning boshqa viloyatlarida ham raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish zarurati tug'ilmoqda. Bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati rivojlangan hududlarning ishlab chiqarish kooperatsiyasi bo'yicha tajribasini umumlashtirish orqali boshqa viloyatlarda ham tadbirkorlik salohiyatini kuchaytirish va eksport yo'nalishida tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish mumkin bo'ladi. Xususan, ishlab chiqarish faoliyatini vaqtincha to'xtatgan yoki moliyaviy muammolar sababli bankrot holatiga tushgan korxonalarini qayta tiklashda ham bu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kooperatsion metodlarni qo'llash natijasida, ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etayotgan barcha subyektlar o'zaro manfaatdorlik asosida ishlash imkoniga ega bo'ladi, bu esa mamlakat sanoatining barqaror va muvozanatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A.Soliyev va Z.Xakimovlar "Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" "Biznes-ekspert" jurnali 2014 yil 1-son, 52-57 bet.
2. A.SH.Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi". Monografiya, 2006 yil, 112 bet.
3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.
4. Enright, M (1996) "Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda", in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). "Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin". Walter de Gruyter, p.190-213.
5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа "Прогресс", 1993
6. П.Бегаттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian "Industrial Districts"/ www.competitiveness.org
7. Коно Т. Стратегия и структура японских предприятий. –М.: Мысль, 1987.-214 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" sonli farmoni.
9. The National Council of Textile Organizations is a unique association// <http://ncto.org/facts-figures/us-textile-industry>.
10. www.trade.uz
11. www.trade.uz
12. Bangladesh to'qimachilik va tikuvchilik sanoati korxonalarini ichki va tashqi faoliyatidagi imtiyozlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
